

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TA'LIM SIFATINI OSHIRISH UCHUN OLIB BORILAYOTGAN DASTURLAR TIZIMI

Xalimova Madinabonu

Andijon viloyati Marhamat tumani 4-DMTT Jismoniy tarbiya o'qituvchisi

Annatotsiya: Barchamizga ma'lumki, O'zbekiston respublikasi rivojlanayotgan davlatlar sirasiga kiradi. Hozirgi kunda esa O'zbekiston respublikasini rivojlangan davlatlar qatoriga qo'shish bo'yicha amaliy ishlar olib borilmoqda. Bu albatta juda quvonarli holat, biznes sohasi, texnika bilan bilan bir qatorda, ta'lif ham bundan mustasno emas, albatta. Shunday ekan biz ushbu maqolamizda hozirgi kunda ta'lif sifatini rivojlantirish uchun olib borilayotgan dasturlar tizimi haqida bahs yuritamiz. Chunki, ta'lif har bir sohaning nazariy negizidir. Shunday ekan, davlatni rivojlantirish uchun eng avvalo ta'limga urg'u berish beziz emas, albatta. Biz ushbu maqolada shular haqida gaplashamiz.

Kalit so'zlar: ta'lif, O'zbekiston respublikasi, qonun, qaror, Vazirlar mahkamasi, Oliy majlis, prezident, inspeksiya

Abstract: As we all know, the Republic of Uzbekistan is one of the developing countries. Currently, practical work is being carried out to include the Republic of Uzbekistan among the developed countries. This is certainly a very gratifying situation, along with business and technology, education is no exception. Therefore, in this article, we will discuss the system of programs currently being conducted to improve the quality of education. Because education is the theoretical basis of every field. Therefore, for the development of the state, it is not for nothing that education is the first priority. We will talk about them in this article.

Key words: education, Republic of Uzbekistan, law, decision, Cabinet of Ministers, Supreme Assembly, president, inspection

Kirish.

Hammamizga ma'lumki, O'zbekiston respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyev o'z murojaat nutqida yangi — 2023-yilni O'zbekistonda "Insonga e'tibor va sifatli ta'lif" yili deb e'lon qilishni taklif etdi. Shavkat Mirziyoyev ta'lif sifatini oshirish — Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yakkayu yagona to'g'ri yo'li ekanligini aytди.

"Ushbu sohada boshlagan islohotlarimizni davom ettirishimiz, ta'lif dargohlariga borib, o'qituvchi va murabbiylar bilan ko'proq muloqot qilib, sifatni oshirish bo'yicha ular qo'ygan masalalarni birgalikda hal qilishimiz kerak. Biz kelgusi yil Davlat dasturiga xalqimiz ko'targan barcha masalalarni aniq yechimlari bilan kiritamiz. Ushbu jarayonlarda deputat va senatorlar, mahalla vakillari, ziyorilar, yoshlar, tadbirkorlar va keng jamoatchiligidan faol bo'lishlarini, yangi-yangi taklif va tashabbuslar bildirishlarini so'rayman", — dedi davlat rahbari.

Bu kabi islohotlar, tashabbuslar bekorga emas, chunki rivojlangan mamlakatlar tajribasiga tayanadigan bo'lsak, ularning ta'lif sifati naqadar yuqori ekanligiga guvoh

bo‘lamiz. Aynan ushbu maqolamizda bugungi kunda olib borilayotgan islohotlar haqida gaplashamiz.

Asosiy qism

“Taraqqiyot strategiyasi asosida amalga oshirilayotgan islohotlarimizning navbatdagi yilida insonga e’tibor va sifatli ta’lim masalalari eng ustivor vazifalarimizdan biriga aylanadi. Aslida–ku, so‘nggi yillarda hayotga joriy etilayotgan barcha islohotlarning markazida Inson qadri turibdi, uning manfaatlari eng oliv mezon deb qaralmoqda. Shu ma’noda olib ko‘rliganda “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da mazkur qadriyatlar ma’no va mazmun jihatdan uzviy davom ettiriladi, ham ma’no, ham mazmun jihatdan yanada boyiydi. Misol uchun, Prezidentimiz o‘z murojaatida “Ta’lim sifatini oshirish – Yangi O’zbekiston taraqqiyotining yakkayu yagona to‘g‘ri yo‘lidir！”, deb ta’kidlab o‘tdi. Yangi O’zbekiston uchun eng katta investitsiya bo‘lgan ta’limni qo’llab-quvvatlashga katta e’tibor qaratilishi, o‘qituvchilarning maqomini, ularning sha’ni va qadr-qimmatini himoya qilishni Konstitutsiyada alohida belgilash zarurligi qayd etildi. Kelgusi yildan boshlang‘ich sinflarda mutlaqo yangi metodika asosida yaratilgan darsliklar bo‘yicha o‘qitish yo‘lga qo‘yiladi. Barcha viloyatlar va Toshkent shahri maktablarida ham bepul ovqatlanish joriy etiladi. “Yil boshidan Qoraqalpog‘iston va Xorazmda 285 ming nafar boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun bepul ovqatlanish yo‘lga qo‘yildi. Bu borada yetarli tajriba orttirdik. Endi, kelasi o‘quv yilidan ushbu amaliyot qolgan viloyatlar va Toshkent shahri maktablarida ham joriy etiladi va buning uchun 2,3 trillion so‘m ajratiladi”， – dedi Davlatimiz rahbari. Ta’kidlanganidek, kelasi yili 70 ta yangi maktab quriladi, 460 tasi kengaytiriladi. Xususiy investitsiyalar ishtirokida 100 ta maktab qurish loyihalari boshlanadi, kelasi besh yilda ularning soni mingtaga yetkaziladi” [1]

Darhaqiqat, bu kabi ma’lumotlar o‘rinli. Chunki davlatimizda olib borilayotgan o‘zgarishlar, tashabbuslar talaygina. Birgina Prezident maktablarining sonini ko‘payishi, bundan tashqari oddiy maktablarning zamonaviy o‘quv qurollari bilan ta’minlashi, o‘qituvchilarning erkin dars berishlari uchun imkoniyatlar yaratib berishlariga harakat qilinishi bunga misol bo‘la oladi. Nafaqat, ta’lim muassasalarida o‘rganayotgan ilmlari, bundan tashqari tengdoshlarimizning chet el kurslarida zamonaviy kasblarni egallab O’zbekistonga tatbiq qilayotganlari bunga yorqin dalil bo‘la oladi.

Bu kabi islohotlar yana talaygina. “Mamlakatimizda ta’lim tizimini takomillashtirish va ta’lim sifatini oshirish yo‘lida bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda. Mamlakatimiz hayotida yuz berayotgan siyosiy, ijtimoiy iqtisodiy va madaniy o‘zgarishlar, shubhasiz, oliv ta’lim muassasalari faoliyatiga ham o‘z tasirini o’tkazmoqda. Endilikda oliv ta’lim muassasalarining vazifasi bo‘lajak mutaxasislarga faqat bilim berish emas, balki ularning shaxsini shakllantirish, ularda amaliy va kasbiy ko’nikmalarni, malakalarini shakllantirish, ijodiy va mustaqil fikrashga o‘rgatish, ularda kreativlik qobiliyatini shakllantirish ham kiradi.

Bugungi kunda universitetlarning ta’lim berish faoliyati yanada takomillashtirilib, xalqimizning asrlar davomida shakllangan ilm sari intilish fazilati yana bir bor namoyon bo’lmoqda. Yoshlarimiz sog’lom hamda go’zal turmush kechirish, egallagan kasbi bo‘yicha

doimiy ish o'rniga ega bo'lish, mas'uliyatni o'z zimmasiga olish, insoniy qadr-qimmatini kamsitishga yo'l qo'ymaslik, qisqacha

Aytganda, komillikka erishish uchun harakat qilyapti va bu jarayonda ta'lim olishni eng asosiy shart sifatida ko'rmoqda" [2]

Keyingi yillarda mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga hamda xalqaro standartlar talablariga mos keladigan oliy ta'lim tizimini yaratish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Hududlarda yangi oliy ta'lim muassasalarining tashkil etilishi, kadrlar tayyorlashning zamonaviy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari hamda sirtqi va kechki bo'limlarning ochilishi, oliy ta'lim muassasalariga qabul kvotalarining oshirilishi mazkur yo'nalishdagi muhim islohotlar hisoblanadi.

Shu bilan birga oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirishga, respublikada amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar, ijtimoiy va iqtisodiy sohalardagi yangilanishlarda ushbu muassasalarining faol ishtirokini ta'minlashga to'siq bo'layotgan bir qator muammolar saqlanib qolmoqda, xususan:

- Birinchidan, oliy ta'lim tizimida o'qitishni tashkil etish jarayoni, ta'lim olayotgan talabalar bilimini baholash tizimi bugungi kun talablariga javob bermayapti;
- Ikkinchidan, professor-o'qituvchilarning faoliyatini, bilimini va pedagogik ko'nikmasini baholashning zamonaviy tizimi mavjud emasligi ta'lim sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda;
- Uchinchidan, oliy ta'lim muassasalariga kirish test savollari abituriyentning mantiqiy fikrlesh qobiliyatini aniqlash imkonini bermayotganligi iqtidorli yoshlarni oliy ta'lim muassasalariga qabul qilishda muammolar keltirib chiqarmoqda;
- To'rtinchidan, oliy ta'lim muassasalaridagi ta'lim jarayoni ustidan samarali jamoatchilik nazoratining o'rnatilmaganligi ushbu sohada ko'plab muammolarning, eng avvalo, korrupsiya holatlarining saqlanib qolishiga sabab bo'lmoqda;
- Besinchidan, oliy ta'lim muassasalarining mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli va tizimli o'zgarishlardagi ishtiroki hamda tashabbuskorligi sezilmayapti, ularning ushbu yo'nalishdagi faoliyati hanuzgacha qoniqarsiz bo'lib qolmoqda;
- Oltinchidan, respublikamizda olib borilayotgan tub islohotlarning mazmuni va mohiyatini ommaviy axborot vositalari orqali xalqimizga, keng jamoatchilikka tushuntirishda oliy ta'lim muassasalarining faol ishtiroki yo'lga qo'yilmagan;
- Yettingidan, oliy ta'lim muassasalari innovatsion va texnologik g'oyalar bilan fikr almashadigan muloqot markazlariga aylanmagan, tegishli sohalarda mavjud muammo va kamchiliklarni tizimli o'rganish, tahlil qilish va ularning yechimi bo'yicha taklif kiritish borasida professor-o'qituvchilar, yosh olimlar va talabalarning tashabbus ko'rsatishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratilmagan.[3]

Bu kabi qarorlar, islohotlar talaygina. Bu ayrimlari xolos, chunki vaqt o'tgani sari yangidan-yangi islohotlar amalga oshirilmoqda. Chiqarilgan ayrim qarorlarga esa, o'zgarishlar kiritilmoqda. Sababi, yaratilgan har bitta tashabbus xalqning savodli bo'lishiga, yoshlarni ilm olishiga ko'mak berishi zarur.

Yana bitta yangilik, hozirgi O‘zbekiston ta’lim tizimini rivojlantirish uchun xorijiy mamlakatlar tajribasidan foydalangan holda yanada takomillashtirishga harakat qilinmoqda. Xususan, “ Joriy yilning 20-dekabr kuni Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasida Edtech Finland kompaniyasi vakillari bilan uchrashuv bo‘lib o’tdi. Ushbu uchrashuvda, xalqaro Nordik universiteti ko‘magida tashkil etilgan uchrashuv davomida Ta’lim inspeksiysi boshlig‘i Ulug‘bek Tashkenbayev, tegishli boshqarma va bo‘lim boshliqlari hamda EdTech kompaniyasi asoschisi, ta’lim sohasi eksperti Mervi Palander va HY+ trening markazi malaka oshirish tizimi eksperti Xanne Kolilar ishtirot etdi. Muhokamalar avvalida Ta’lim inspeksiysi boshlig‘i xorijlik mehmonlarga O‘zbekistonda ta’lim sifati va samaradorligini oshirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar, shuningdek, inspeksiya faoliyati haqida ma’lumot berdi. Shu bilan birgalikda, EdTech kompaniyasi bilan amalga oshiriladigan hamkorlik aloqalarining asosiy yo‘nalishlariga to‘xtalib o‘tildi.[3]

Bu kabi yig‘ilishlar hozirgi kunda ko‘plab o‘tkazilyapti, bu esa ta’lim sohasining rivojlanishi uchun o‘z hissasini qo‘shmasdan qolmaydi.

Xotima.

Prezidentimizning bu qadar joykuyarlik bilan chiqarayotgan farmonlari, qarorlari, albatta biz yoshlar uchun. Hattoki, mazkur yilni ta’lim tizimini rivojlantirishga qaratilgani ham biz yoshlar uchun judayam katta imkoniyatlar eshigi ochib berishiga ishonamiz. Davlatimizning ta’lim sistemasini rivojlantirish, uni jahon standartlariga mos ravishda tatbiq qilish, kelajakda yetuk kadrlar yetishtirish va har tomonlama izlanuvchan kelajak bunyod qilish davlatimiz oldida turgan ulkan maqsadlardan biridir. Zero, Daniel Defoning ta’lim haqida judayam go‘zal fikrlari bor: “Badanga joylashtirilgan ruh qo‘pol olmosga o‘xshaydi va uni sayqallash kerak, aks holda u hech qachon porlay olmaydi; va agar aql bizni hayvonlardan ajratib tursa, ta’lim bu farqni yanada oshiradi va hayvonlardan boshqalarga qaraganda uzoqroq borishimizga yordam beradi”.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

- U.P.Umrzoqov. Ta’lim tizimi islohatlari O‘zbekistonda yangi o’yg’onish davri poydevorini yaratadi. Xalq so’zi gazetasi. -<https://xs.uz/uzkr/post/talim-tizimi-islohotlari-ozbekistonda-yangi-ujgonish-davri-poj> devorini-yaratadi (manbara 05.05.2022 yilda murojaat qilindi).
- Qurbonov Sh. Seytxalilov E. Ta’lim sifatini boshqarish-T.: “Turon-Iqbol”,2006.
- <https://www.tdi.uz/uz/news/4230>
- <https://xs.uz>
- “Oliy Ta’lim Muassasalarida Ta’lim Sifatini Oshirish Va Ularning Mamlakatda Amalga Oshirilayotgan Keng Qamrovli Islohotlarda Faol Ishtirokini Ta’minlash Bo‘Yicha Qo‘Shimcha Chora-Tadbirlar To‘G‘Risida” Nizomda